



Keywords: family, ethnic, interpersonal relations, harmony, peace, value.

Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi- bu farzand ko'rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir.

Darhaqiqat, oila har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining qadriyatlari va ma'naviy merosi ravnaqini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. "Halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-u hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan". Bola shakllanishining ilk maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatlari majmui bo'lib hisoblanadi. "Oila haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo ko'z o'ngimizda ona siymosi shakllanadi. Oila muqaddasligini ta'minlovchi birinchi omil - ona, ahli ayolning pokizaligi, oqilaligi, mehru-muruvvati, sadoqati va vafodorligidir". Ota-onalar munosabatlarida namoyon bo'luvchi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy toifadagi qadriyatlar ularning o'zaro munosabatlarida uyg'unlasha borib, oilada o'zaro munosabatlar maromini vujudga keltiradi. Oiladagi ushbu ijtimoiy jarayon yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy turmush haqidagi tasavvurlari, nuqtai nazarlari, tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona odob-axloq qoidalari va ularga amaliyotda rioya etishning to'g'ri yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi. Yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning xatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida shakllanadi.

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko'rsatadi. Qadimgi xalqlardan qolgan asori-atiqalarda, muqaddas diniy manbalarda, o'zbek xalqining og'zaki ijodi durdonalarida, sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarida sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan odob-axloq qoidalari, meyorlari, insoniy fazilatlar ifodasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. Manbalarda oilasiz insoniy hayotni tasavvur qilib bo'lmalik, barkamol farzand tarbiyasi, undagi er-xotin va o'zaro munosabatlar madaniyati, baxtli va farovon turmush kechirish yo'llari, hayotiy misollar yordami bilan hikmatlar va nasihatlar ko'rinishida bayon etilgan.

Oilaviy turmush bilan jamiyat taraqqiyotining doimiy mushtarakligi tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham oilaviy muammolar uning ilg'or vakillari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyotida va farzandlarning kamolotida shu qadar muhimki, xuddi shu bois uni biror soniya ham diqqat-e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi.

Ana shunday xalqaro ahamiyatga molik tadbirlarning kun tartibida turishi oila hayoti, undagi shaxslararo munosabatlar mustahkamligi va uning farovonligi kabi masalalar ijtimoiy psixologiyaning asosiy kategoriyasi va shaxslararo munosabatning asosi sifatida nihoyatda dolzarb muammo ekanligidan dalolat beradi.





"Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi". Ko'rinib turibdiki, oilaviy hayot masalalari hozirgi davr fani tadqiqot yo'nalishining ustuvor sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Respublikamizda "Oila" ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi hamda hukumat tomonidan "Oila kodeksi" (1998) qabul qilinishi bugungi kunda oilalarning mustahkam va barqarorligini saqlash uchun qilinayotgan muhim amaliy ishlardan hisoblanadi.

Afsuski, oila-nikoh munosabatlarining hozirgi davrga kelib zaiflashib borayotganligi dunyoning deyarli ko'pchilik mamlakatlarida: Amerika Qo'shma shtatlari, Angliya, Fransiya, Germaniya, Boltiq bo'yi davlatlari, Rossiya va boshqa qator davlatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'zbek oilalari hayotida oila-nikoh munosabatlarining zaiflashuvi va uning buzilishlari yuqorida qayd etilgan davlatlardagiga qaraganda ancha kam bo'lsa-da, afsuski ajralishning asoratlari oila a'zolari va qarindosh-urug'lar o'rtasida nihoyatda ayanchli oqibatlar, noxush holat va hodisalar keltirib chiqarayotganligi kuzatilmoqda.

O'zbekiston psixologlari tomonidan o'zbek oilalariga xos muammolarni o'rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi birqator masalalar har tomonlama o'rganilib tahlil qilingan. Biroq, yuqoridagi ilmiy izlanishlarda oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Aslida oilaviy turmushda yuzaga keladigan muammolar, hatto oilaning buzilishi va uning salbiy asoratlari, hamma-hammasi undagi shaxslararo munosabatlar ta'sirining natijasi ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak.

Millat va millat bilan bog'lik bo'lgan ko'plab omillar ijtimoiy va siyosiy hayotda muhim rol o'ynab kelgan va bundan keyin ham uzoq davrgacha o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Olimlarning ko'rsatishicha ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni turli bosqichlarida turgan 4 mingga yaqin millat va elat hamda turli xalqlar mavjud ekan. Ularning har birini o'z tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlari bor. Ularni o'rganish millatlararo munosabatlarini tashkil qilishda, turli iqtisodiy, madaniy aloqalarni o'rganishda katta yordam beradi. Lekin, yaqin davrgacha bizning ijtimoiy fanlar tizimida milliy masalalar va unda psixologiya omillarining tutgan o'rniga yetarlicha baxo berilmay kelindi. Ayrim xollarda esa asossiz ravishda inkor etildi. Xatto ba'zi bir tadqiqotchilar milliy xususiyatlar, etnopsixologiya masalalarini o'rganishga shubha bilan qarashdi. Bunda ular etnopsixologiya masalalarini o'rganish bir xalqni maqtab, ikkinchisini kamsitishga olib kelishi, irqchilik, millatchilikni kelib chiqishiga sabab bo'ladi, deb xavotirlanishdi. Etnopsixologiyaga oid ayrim tadqiqotlarda mualliflar o'z millatlarini xaddan tashqari ko'klarga ko'tarib yuborish, boshqa qo'shni xalqlardan ustun qo'yish xollari bo'lganki, bu tabiiy turli noroziliklarni tug'ilishiga sabab bo'lgan. Shuning bilan birgalikda xalqlarning voqelik va tabiatni





idrok qilish, kiyinish, avlodlar tarbiyasi, avlodlar o'rtasidagi munosabatlardagi o'zaro xosligini hisobga olmaslik ham mumkin emas.

Etnik o'ziga hosligini inkor etish, milliy munosabatlarni hisobga olmaslik turli salbiy munosabatlarni, hatto etnik nizolarni keltirib chiqaradi.

Qadimgi dunyo mutafakkirlari Aristotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagor va boshqalar barcha ijtimoiy va psixologik xodisalarni tushuntirib berish uchun yagona bo'lgan umumiy tamoyillarni, nazariyalarni qidirib topishga, xususan, xalqlarning turli psixologik xususiyatlariga ega bo'lishining sabablarini tushuntirib berishga xarakat qiladilar. Etnopsixologik xususiyatlarni vujudga kelishini ular asosan, tabiiy - geografik muxitning ta'siri bilan bog'lab tushuntirdilar. Masalan, qadimgi dunyoni buyuk mutafakkiri Gippokrat (eramizdan avvalgi 460-375 yil) o'zining "Xavo. Suv va quruqlik", degan asarida xalqlarning turli ruhiy va jismoniy xususiyatlarini bevosita iqlim sharoiti bilan bog'lagan xolda tushuntirib berdi. Xalqlarning temperament va xarakter xususiyatlarini vujudga kelishini ular iste'mol qilayotgan oziq-ovqatlar bilan bog'lab tushuntirishga ham urinishlar bo'lgan.

Mashhur matematik va faylasuf Pifagor (eramizdan avval 570-500) ning tushuntirishiga haraganda, xayvon go'shti va yog'ini ko'p iste'mol qilinishi, xalqlarda qattiq qo'llik dag'allikni vujudga keltiradi. Aksincha, o'simlik mevalari va sabzavotlarni muttasil iste'mol qilinishi esa tana faoliyatini susaytirib, odamlar tabiatini muloyimlashtiradi. Antik dunyoning buyuk aql egasi Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322 yil) kishilar xarakter xususiyatlarini iqlim sharoitiga bog'lab tushuntiradi. Uning ko'rsatishicha xaddan ortiq issiq yoki sovuq iqlim sharoitida yashaydigan xalqlar qattiq qo'l, shavqatsiz bo'lishar ekan.

Buyuk bobomiz Abu Rayxon Beruniy "Osori boqiya" (Abadiy qadryatlar) asarida turli xalqlar: qadimgi greklar, eroniylar, sugdlar, xorazmliklar, xristianlar, yudiylar, musulmonlarning ruxiy xususiyatlari, ularni o'z eralari boshlanishini, mashxur bayramlari, xotira kunlarini xamda bir xalqni ikkinchisidan farqlanadigan urf-odatlarini ko'rsatib bergan. Turli xalqlarga xos hususiyatlarni o'rganish uchun Beruniy o'ziga xos ilmiy metod yaratdi. Buning uchun, deb ko'rsatadi u, qadimgi xalqlar rivoyatlarini o'rganish va o'tmish avlodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi lozim.

Abu Rayxon Beruniy o'zining mashhur "Hindiston" asarida hindlarning dini va tafakkur qilish xususiyatlari, diniy va dunyoviy hayoti bilan bog'lik bo'lgan urf-odatlarini, ularning xudolarga ishonishlari materiya va shakl, jonning ko'chib yurishi, do'zax va jannat haqidagi tasavvurlari bayon qilingan. Xalqlarning psixologik xususiyatlarini iqlim va boshqa tabiiy omillar bilan bog'likq tushuntirish keyingi davrlarda yashab ijod qilgan XVII-XIX -asr mutafakkirlari -Monteske, J.J. Russo, Didro, Gumboldt, shuningdek, xozirgi davrdagi ayrim tadqiqotchilar faoliyatida ham uchraydi. Sotsiologiyadagi fransuz ma'rifatparvari Sh. Monteske 1689-1755 ham xalqlar o'rtasidagi ruhiy tafovutlarni asosan, kishilar tanasidagi doimiy ta'sir etadigan turli -tuman tabiiy iqlim natijasi, deb tushuntiradi. Uning fikricha, iqlim va zamin xalqlarning ahloq normalarigagina ta'sir etib qolmasdan, shuning bilan birga davlat siyosatiga, madaniy taraqqiyot darajasiga "psixologik qiyofa" ga ham kuchli





ta'sir ko'rsatar ekan. Iqlimning ro'lini xaddan tashqari oshirib yuborish natijasida Monteske sovuq iqlimda yashaydigan xalqlar esa jismoniy jixatdan zaif bo'lishadi degan xulosaga keladi. Iqlim sharoiti ta'sirida inson tanasida bo'ladigan fiziologik jarayonlarni ijtimoiy -siyosiy xodisalar va ahloq normalari vujudga kelishi uchun moddiy asos qilib olinishi, biologik va sotsial qonuniyatlarini bir-biri bilan chalkashtirib yuborish hisoblanadi. Bu esa ohir oqibatda ijtimoiy-tarixiy xodisalarni tushintirib berishda noto'g'ri xulosalar qilishga olib keladi. Iqlimiy omillarning ro'lini oshirib yuborish etnik xususiyatlarni o'zgaraydigan va doimiy bo'lgan xodisa, degan xulosa qilishga olib keladi. Vaxolangki, kurramiz iqlimida keyingi yuz yilda deyarli keskin o'zgarishlar sodir bo'lmagan bo'lsa ham, insonlar hayotida katta ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar bo'lib o'tdi, bu o'zgarishlar o'z navbatida xalqlarning psixologik qiyofasida ham katta o'zgarishlarga olib keladi.

Shuning bilan birgalikda etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiiy geografik muxitning ro'lini ham butunlay inkor etib bo'lmaydi. Geografik joylashish o'rni va iqlim sharoiti xalqning yashashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoit sifatida uning iqtisodiy rivojlanishida, psixologiyasining shakllanishida muhim ro'l o'ynaydi. U yoki bu mamlakatdagi yeri ko'p jixatdan tabiiy -iqlim sharoitlari bilan belgilanadi. XX asrda Yevropadagi yangi bir g'oya -" Xalq ruhi" keng tarqala boshlandi. Bu g'oyaga ko'ra har bir xalq, etnik guruh avvaldan instinktiv ravishda berilgan o'z "ruhi" ga ega bulgan ekan.

Har bir irq, xalq ma'lum anatomik tuzilishiga ega bo'lgan, u xalq taqdiri va kelajagini belgilab turadi. Bu ruh xalqning siyosiy tizimini, e'tikod va ishonchini, diniy qarashlarini boshqarib turadi." Xalq ruhi" nazariyasini to'la bayoni ayniqsa Gegel falsafasida yuzaga keladi. Gegel har xalqning o'tmishi va kelajagini mana shu "Mutloq ruh" bilan bog'lab tushuntiradi. Turli xalqlarning ma'naviy siyosiy iqtisodiy xatto irqiy tafovutlarning asosini ham shu "ruh" tashkil etadi, deb ko'rsatadi.

Ko'p sonli ijtimoiy psixologik eksperimentallarda mashhur psixolog A. R. Luriya ko'p ruhiy jarayonlar, ayniqsa, oliy ruhiy faoliyat jarayonlari tasavvur va mavxumlash ijodiy hayol insonlarning biologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lmay, balki ancha taraqqiy etgan ijtimoiy – tarixiy taraqqiyot maxsuli ekanligini ko'rsatib berdi.

O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, faqat murakkab bilim jarayonlari bilan bog'liq bulgan ruxiy jarayonlargina emas, balki nisbatan oddiy jarayonlar va funksiyalar xam xayotiy tajribalar va ijtimoiy- tarixiy jarayonlar asosida vujudga kelar edi.

Miya o'z-o'zidan tashqaridan kelayotgan informatsiyalarsiz fikrlay olmaydi. Psixolog P. P. Beonekiy aytganidek, « Bo'm – bo'sh boshda fikr bo'lmaydi ».

Ijtimoiy- tarixiy, ijtimoiy shart –sharoitlar inson faoliyatini belgilaydi. U esa o'z navbatida ruxiy jarayonlar ongning mazmun va moxiyatini belgilaydi. Turli davrlarda, zamonlarda yaratilgan mexnat maxsulotlarida o'sha davr va zamon odamlarining bilimlari va imkoniyatlar o'z aksini topgan bo'ladi. Zero, mexnat jarayonida subyekt obyektga kuchadi, insonning kuch va qobiliyatlari u yaratayotgan narsalarda





gavdalanadi. Shuning uchun ham psixologlar turli tarixiy davrlarda yashagan kishilarning ruxiy xususiyatlarini, davr ruxini, ular yaratib qoldirgan faoliyat maxsulotlarini o'rganishi orqali bilib olishi mumkin.

Nemis xalqi tarixining ma'lum bir davrida, deb yozgan edi F. Engels – amaliy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun obyektiv shart –sharoitning yo'qligi, millatning o'qimishli kishilarini o'z kuch va qobiliyatlarini falsafa soxasiga burib yuborishga olib keldi va shuning uchun xam XVIII- XIX asrlarida mavxumiy fikrlashga moyillik nemis xalqi xarakterlarining tipik xususiyati bo'lib qolgan. Demak, millatning o'qimishli kishilar faoliyati turini ham mamlakat xayotidagi tarixiy jarayonlar belgilar ekan.

Har bir xalqning tarixi va taqdiri o'ziga xos kechadi. Agar xalq tarixini va uning psixologik xususiyatlarini bir- biriga solishtirsak, biz etnopsixologik xususiyatlarida xalq tarixini chukur aks ettirishni kuramiz. Yukoridagi zikr kilganimizdek, etnopsixologik xususiyatlarining shakllanishida tabiiy muxit xam ma'lum ta'sir ko'rsatadi. Geogrofik va iqtisodiy sharoitlarni o'xshash bo'lmasligi, etnik jixatdan bir- biriga yaqin bo'lgan 2 qo'shni va qardosh xalq o'zbeklar bilan qozoqlarning psixologik qiyofasida ma'lum tafovutlarni vujudga keltirib chiqardi.

Ma'lumki, o'zbeklarning asosiy qismi dexqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyati mavjud bo'lgan voxalarda joylashganlar.

Yerga xususiy mulkning vujudga kelishi, yerdan intensiv ravishda foydalanish dexqonchilik maxsulotlarini ko'plab yetishtirishga olib keldi. Bundan tashqari o'zbeklar yashaydigan yirik shaxarlarning g'arbdan sharqqa, janubdan shimolga o'tuvchi katta karvon yo'llarga joylashgan bo'lishligi, bu yerlarda faqat dexkonchilik emas, shuningdek pul-tovar munosabalarini, turli xil xunarmandchilikni, qo'shni xalqlar bilan savdo- sotiq ishlarini rivojlantirishga olib keldi.

XV- XVI asrdayoq Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Xo'jand kabi yirik shaxarlar Hindiston, Xitoy, Eron, Rossiya, Arabiston kabi mamlakatlar bilan keng savdo –sotiq ishlarini olib borishgan. Bularning xammasi o'zbek xalqining hayot tarziga va psixologiyasiga singib o'z aksini topib borgan. Qo'shni mamlakatlar bilan savdo- sotiq va boshqa iqtisodiy- madaniy aloalarning qizg'in olib borishligi, ulardan xushmuomalalik, hushtabiatlik, hozirjavoblik, tadbirkorlik kabi xususiyatlarini talab etadi.

O'zbek xalqini hayoti va turmush tarzini o'rgangan tadqiqodchilarning barchasi o'zbeklarga xos bulgan ochiq yuzlik va hushmuomalalikni ta'kidlab ko'rsatishgan edi.

O'zbeklarga xos bu xususiyatlarni Qozoq adabiyotining klassigi Abay ham ta'kidlab ko'rsatib iltifotlilik, hushmuomalalik bularning hammasi satrlardadir deb yozgan edi.

N. Jondildik Qozoq xalkqiga xos bo'lgan ayrim vazminlik, kamsuqumlikni xo'jalik yuritish ishlari bilan bog'lik deb ko'rsatadi, ular butun umr bo'yi chorvachilik bilan shug'ullanib ularning xo'jalik hayotining deyarli butun qismini tashkil etib qoldi. Aholini tarqoq holda joylashtirish, ular o'rtasida aloqa o'rnatishni qiyinlashtirar, ular xatto uzoq-vaqt davomida yolg'iz yashashlikka majbur bo'ladilar. Bu esa ularda yuqorida aytilganidek, o'zaro muommolarda kamgaplik xatto o'zining eng nozik va qaynoq tuyg'ularini bayon etishda vazminlikni ko'rsatishni vujudga keltiradi.





Shunday qilib ikki qardosh va ko'shni xalq o'zbeklar va qozoqlar o'zlarining uzoq iqtisodiy va madaniy aloqalariga etnik jihatdan yaqinligiga, tilning o'xshashligiga qaramay yuqoridagi sabablar orqali butun xususiyatlari bilan farq qiluvchi millat bo'lib shakllanadi.

Etnopsixologik xususiyatlarning o'ziga xos tomonlarini mujassamlashtiruvchi va uni namoyon etuvchi shu etnik birlik vakillaridir. Qanday qilib etnik birlikka xos xususiyatlar ularda shakllanadi. Ma'lumki bola o'ziga vatanni yoki ota-onani tanlab tug'ilmaydi. Shunday ekan u o'z millatiga xos bo'lgan tayyor ruhiy xususiyatlar bilan ham tug'ilmaydi. Bola ota-onasidan, avlod-ajdodidan biologik yo'l bilan faqat irqiy xususiyatlarini va ayrim ruhiy xususiyatlarnigina meros qilib oladi xolos. Bola tug'ilish davrida odam bo'lishiga nomzod. Lekin yakka ajralgan holda u odam bo'la olmaydi.

Jamiyatda yashab u odam bo'ladi. Bola hayotining birinchi kunidan boshlaboq ixtiyorsiz xolda o'zi dunyoga kelgan muxitdagi turli-tuman ta'sirlar va tassurotlar ostida shakllana boshlaydi. Bolaning biologik va ruxiy jixatdan rivojlanishi uchun ta'sir etayotgan bu informatsiyalar turli sotsial muxit va geografik sharoitlarda bir xil bo'lmaydi. Mana shu turli xil muxit va informatsiyalarning turfa xilligi bir-biriga o'xshamaydigan xalqlarni yaratadi.

Garchi har bir inson ma'lum darajada mustaqil yashash va faollik ko'rsatishga ega bo'lsa ham lekin hayotda u faqat o'z xoxishi va tushunchasi bilan yashab qolmay, shuning bilan birgalikda o'zi yashab turgan sotsial muxit va o'zi ma'sul bulgan xalqning tajriba, bilim va e'tikodlarini ham o'zlashtirib boradi. Chunki odam o'zi yashab turgan sotsial muhitdan butunlay chiqib ketib yashay olmaydi.

Bola faqat milliy muhitda yashab turgandagina shu millat va elatga xos bo'lgan xususiyatlarni egallab ayni millat vakili bo'la oladi. Bolaning ontogenetik taraqqiyoti davrida tashqi xatti –harakatlaridan botiniy ya'ni «aqqiy» xususiyatlariga aylanishi davrida unda milliy psixologik qiyofa asoslari shakllana boshlaydi.

Individning ijtimoiylashishi, milliylashishi ona tilini o'zlashtirish bilan boshlanadi. Milliy tilni bilmaslik etnik muhitdagi jarayonlarni, tilda ifodalanayotgan holat va hodisalarni mxxyiatlarini anglab olishga to'qinlik qiladi. Chunki fikr ifodasi uchun ishlatiladigan so'zlarda milliy o'ziga xoslik bo'ladi. Tafakkur bilan til va nutq o'zaro bog'lik bo'lganligi uchun ruscha tili chiqqan bolalarning fikrlash malakasi ham ruscha bo'lib o'zbeklarnikidan farqlanadi. Chunki insonning tafakkur tarzi nutqda, tilda reallashadi, moddiylashadi. Ular o'zbekcha gaplashishga o'rganganlaridan keyin ham, ruscha fikrlab, o'zbekcha gapirishga harakat qiladi. Ruscha tafakkur tarzi bilan o'zbekcha gapirish juda qiyin.

Boshqa millat vakili voqeylikni o'zbekning ko'zi bilan ko'rib o'zbekona tafakkur tarzi bilan idrok eta olgandagina u chinakamiga o'zbekcha fikr yuritib, o'zbekcha gapira boshlaydi. Yuqorida aytib ulg'ayganimizdek ko'rgan narsalarni idrok etish va mazmunini tushunib yetish miyaning tug'ma xususiyati bo'lmay, bu xususiyatni u turmush tajribasi asosida xosil kiladi. Shuning uchun ham turli tabiiy sharoitlarda va sotsial muhitda yashab voyaga yetgan kishilar turli xodisa va





voqealarni idrok etishda o'ziga xos sotsial – psixologik xususiyatlarga ega bo'lishadi. Olib borilgan tekshirishlar shuni ko'rsatadiki Afrika qitasidagi ijtimoiy taraqqiyotdan qolib ketgan ba'zi qabila bolalari tajriba bilan bog'lik bo'lgan amaliy ahamiyatga ega bo'lgan narsalarni, hodisalarni esda olib qolishga ajoyib xotira namunalarini ko'rsatishgan. Ular ov qilinadigan so'qmoqlarni topish, yovvoyi xayvonlar izini farqlash, o'rmon ichida orientirovka qila olishlik kabi vazifalarni bajarishda yevropalik tengdoshlariga qaraganda bir muncha ustunlik qilgan holda geometrik shakllarni deyarli fikrlay olmaganlar. XIX asrda etnopsixologik xususiyatlarni o'rgangan ko'pgina mualliflar o'z asarlarida milliy xarakterni real voqelik sifatida mavjudligini e'tirof etgan. Faylasuf E. Fridriz Angliya tarixini o'rganar ekan, fransuz va nemislarda bo'lmagan o'ziga xos mustaqillik, o'ziga ishonch xususiyatlari rivojlanganligini ko'rsatib beradi. "Ingliz milliy xarakteri nemislarnikidan ham, shuningdek fransuzlarnikidan keskin farqlanadi" deb yozadi u. Ma'lumki, xarakterni mavjudligini inkor etuvchi ayrim mualliflar rus, ukrain, armanlar va nemis fransuzlar bir-biridan farqlovchi xususiyatlarini ko'rsatib bering, deyishadi. Diqqat qilib o'rganish va tekshirish jarayonida hamma xalqlarning milliy xarakterida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar borligini bilib olish mumkin. Milliy xarakterdagi bu farqlarni xatto kundalik xayotda xam ko'plab uchratamiz. Millat xarakterini realliigini himoya qiluvchi mualliflar shunday bir epizodni tasavvur qilishni tavsiya etishadi. Agar vagon kupesiga ikki notanish ingliz chiqib qolsa, ular safarlarining oxirigacha bir-biri bilan yaqindan suhbat qurmay, xatto bir og'iz gapirmasdan kelishlari mumkin deyishardi ... O'zbeklar-?.

Aksincha bir-biri bilan yaqindan tanishib butun hayotini bilib ulguradi Xalqlarning turlicha xarakter hislatlariga ega bo'lishligi ularning ijtimoiy-iqtisodiy tajribasi tarixiy taraqqiyoti va tabiiy yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Bunda ijtimoiy munosabatlar milliy xarakterni shakllanishida yetakchi rol o'ynaydi. har bir tarixiy davr shu davrdagi ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari asosida milliy mafkura manfaatlariga mos bo'lib tushadigan o'z milliy xarakter idealini yaratadi. Shu davrdagi xarakter tipi kishilarning yashash tarzini aks ettiradi.

Xalqning butun tarixi davomida orttirgan xar bir xarakter xislatlarning vujudga kelishi kishilar ruxiyatiga atrofdagi voqeliklarning uzoq vaqt davomida ta'sir etib turishi bilan bog'likdir. Milliy xarakterga qanday ruhiy hislat va sinflarni kiritish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, "Milliy xarakter" tushunchasi xaqida hali ham umumiy bo'lgan bir xil qarash mavjud bo'lmasa ham lekin unga kiruvchi hislatlar to'g'risida umumiy bo'lgan fikrlar mavjud. Ko'p tadqiqotchilar milliy xarakterga, mexnatga munosabat(mexnatsevarlik), vatanparvarlik, erksevarlik, dovyuraklik, jangovarlik kabi xislatlarni kiritishadi.

Bizning fikrimizcha yuqoridagi hislat va sifatlar bilan bir qatorda milliy xarakter tarkibiga yana millatning aql tuzilishi boshqa xalqlarga bo'lgan munosabati va shu millat vakillarining o'zaro munosablarini belgilovchi xususiyatlar ham kiradi.





Hozirgi tezkor zamonda ayrim sabablarga ko'ra xalqlar mentaliteti aktuallik tusini olmoqda. Bu o'z navbatida quyidagilarda ko'rinadi.

Birinchidan; insonning ongli faoliyatini hozirgi kun va kelajak taraqqiyotda aniqlovchi faktor bo'lib kelayotganligida.

Ikkinchidan; har bir xalqning dunyoqarashi, fikrlashi, tafakkuri, kayfiyati, axloqiy xislatlar taraqqiyotiga bog'liqligida.

Uchinchidan; so'nggi yillarda davlatlararo aloqalarning jadallashuvidagi fuqarolar va davlatlararo to'siqlarning olinishi keng ko'lamda xalqlar o'rtasida sezilarli darajada farqlar mavjudligida va oqibatda psixologik hodisalar farqini aks ettiruvchi yangi «Mentalitet» tushunchasi kirib kelganligida.

Ko'p mualliflarning tahriflashicha, mentalitet -bu konkret (aniq) madaniyatda yashab atrof - muhitni o'ziga xos bo'lgan hissiyot bilan ko'rib, tahriflab berish va bunga o'zgacha munosabatini bildirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T., 1993. - 224 b.
2. Abdurauf Fitrat. Oila. - T.: Ma'naviyat. 2000. -112 b.
3. Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar .-T., 1973. -174 b.
4. Bo'rieva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. - T.: Universitet. 1997. -238 b.
5. Vitek K. Problemi suprujeskogo blagopoluchiya: /Per. cheshs. Obщ. red. M.S. Matseovsuogo. Progress. 1988. – 72-83.

